



DIDAKTIK PRINSIPLAR ASOSIDA O'QUV MATERIALLARINI SAMARALI BAYON ETISHNING NAZARIY VA AMALIY JIHATLARI

*Shahrisabz davlat pedagogika instituti 1- bosqich
magistranti*

Turdiyeva Navro'za Sherali qizi

Annotatsiya: Mazkur mavzuda ta'lim jarayonida o'quv materiallarini didaktik prinsiplar asosida bayon etishning nazariy va amaliy asoslari yoritib beriladi. Unda didaktikaning asosiy tamoyillari — ilmiylik, tizimlilik va izchillik, tushunarlilik, ongli va faol o'zlashtirish, ko'rgazmalilik hamda ta'lim va tarbiyaning uzviyligi prinsiplari mazmunan tahlil qilinadi. Shuningdek, o'quv materiallarini mazkur prinsiplar asosida tuzish va taqdim etishning samarali usullari, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash imkoniyatlari hamda amaliy mashg'ulotlar jarayonida ularning ahamiyati ochib beriladi. Mavzu bo'lajak pedagoglar va amaldagi o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qilishi bilan ahamiyatlidir.

Kalit so'zlar: flipchart, pinbord doskasi, kodoskop, videoprojektor, eskiz, chizma, sxemalar, milliylik metodi.

Didaktik prinsiplar — ta'lim mazmuni, metodlari va tashkiliy shakllariga qo'yiladigan asosiy talablar majmuidir. Ular o'qitish samaradorligini ta'minlash uchun ilmiy asos bo'lib, bilimning tizimliliigi, tushunarliliigi, ko'rgazmaliligi, faolligi va amaliyot bilan bog'liqligini nazarda tutadi. Asosiy prinsiplarga tarbiyaviy xarakter, onglilik va faollik, ko'rgazmalilik, izchillik hamda puxtalik kiradi.

Asosiy didaktik prinsiplar quyidagilardan iborat:



Ta'limning tarbiyaviy xarakteri: Ta'lim jarayonida o'quvchilarda axloqiy va ma'naviy fazilatlarini shakllantirish.

Ilmiylik prinsipi: O'quvchilarga faqat asoslangan, ilmiy jihatdan tekshirilgan va zamonaviy bilimlarni yetkazish.

Tushunarlilik (yosh xususiyatlariga moslik): O'quv materiallari o'quvchilarning imkoniyatlari va rivojlanish darajasiga mos bo'lishi kerak.

Ko'rgazmalilik: Bilim olishda his qilish a'zolari (ko'rish, eshitish) ishtirokini ta'minlash, ya'ni darsda ko'rgazmali qurollar va texnologiyalardan foydalanish.

Onliilik va faollik: O'quvchilar bilimni shunchaki yodlamay, tushunib o'zlashtirishi va jarayonda faol ishtirok etishi.

Tizimlilik va izchillik: Bilimlarning ma'lum bir tartibda, oddiydan murakkabga qarab o'rgatilishi.

Puxtalik (o'zlashtirish): O'rganilgan materiallarning xotirada uzoq va mustahkam saqlanishini ta'minlash.

Nazariyaning amaliyot bilan bog'liqligi: Olingan bilimlar amaliy hayotda va topshiriqlarni bajarishda qo'llanilgan

Bu borada mutaxassislar erishgan yutuqlar bilan birga shuni ham ta'kidlab o'tish kerakki, hozirga qadar o'qitish prinsiplari tizimining ilmiy asoslari mukammal ishlab chiqilmagan. Ta'lim jarayonini rivojlantirish prinsiplari boshqa didaktik kategoriyalar kabi pedagogika fanining zamonaviy taraqqiyot darajasi va yosh avlodni tarbiyalash sifati talablari asosida aniqlashtirilishiga muhtojlikni sezmoqda. Pedagogik adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, o'qitish prinsiplari ijtimoiy hayotning o'zgarishi, pedagogika fanining rivojlanishi bilan o'zgarib turadi: ayrim didaktik prinsiplar yo'qoladi, o'rniga yangi didaktik prinsiplar kirib keladi. Biroq har bir o'qitish prinsipi u yoki bu didakt olim tomonidan



prinsiplar tasnifiga kiritilgan. Masalan, Ya.L.Kashanskiy tomonidan tabiiylilik, moslik, ko'rgazmalilik, ta'limda ketma-ketlilik, K.V. Yelniskiy tomonidan ta'limda onglilik, N. Skvorsova tomonidan tarbiyada yakka holda o'qitish prinsipi, faollilik, I.A.Lashkareva tomonidan tarbiyada predmetlararo aloqadorlik, S.M.Mixaylov tomonidan tarbiyada tarixiylik, M.I.Maxmutov tomonidan tarbiyada muammoli prinsiplar, V. Okon tomonidan tarbiyada samaradorlik, Yu.K.Babanskiy tomonidan tarbiyani maqbullashtirish, S.M.Rives tomonidan faollik, moslik, Ye.N. Medinskiy tomonidan tizimlilik, o'qituvchining yetakchilik faoliyati, Z.Mirtursunov tomonidan ta'lim va tarbiya birligi, I.T.Ogorodnikov tomonidan ilmiylik, M.A.Danilov tomonidan g'oyaviylik, tarixiylik, S.M. Mixaylov tomonidan tarbiyani go'zallashtirish prinsipi didaktikaga olib kirilgan.

Talim vositalari deb – organilish lozim bolgan oquv materialni talabalar ongiga yetkazish uchun xizmat qiluvchi vositalar majmuasiga aytiladi. Talim vositalarining xususiyatlariga ko'ra 3 turga ajratish mumkin: bosma, texnik va real

vositalar. Quyidagi chizmada talim vositalarining turlari keltirilgan.

Talim vositalarining xususiyatlarga kora matnli vositalar; tasvirli vositalar; audiovizual vositalar; yordamchi (jihoz) vositalar; modeli vositalar; haqiqiy vositalarga bolish mumkin.

Malumot olish va malumotlarni qayta ishlash uchun

-o'quv dasturlari

-maxsus adabiyot (darslik, oquv qollanmalar)



- maruza matnlari
- tarqatma materiallar
- imtixon va nazorat varaqalari (umumiy tasavvurni vujudga keltirish uchun)
- fotosuratlar
- eskiz, chizma, sxemalar
- tasvirlar, jadvallar, simvollar
- plakatlari

Nazariy darslarda talim beruvchilar asosan matnli va yordamchi

vositalardan, misol uchun darsliklar va tarqatma materiallardan va texnik vositalardan

foydalanadilar.

Amaliy mashg'ulotlarda ular ko'proq tasvirli va real vositalardan, ya'ni eskiz, chizmalar, asbob-uskunalaridan foydalanadilar. Ovoz va tovushli (audio), shuningdek,

tasviriy tasavvurlarni shakllantiradigan audiovizual vositalar jarayonlar va vazifalar

to'g'risidagi keng qamrovli real tasavvurlarni vujudga keltiradi.

MODELLI TEXNIK VOSITALAR: Yordamchi vositalar buning aksi

o'laroq tasvir va matnlarni yozib olish va saqlash imkonini beradi. Ular doska, flipchart, pinbord doskasi, kodoskop, videoproyektor kabilardir. Ish sohasiga tegishli real narsalar, ya'ni mahsulotlar, asboblari va boshqalar dars paytida didaktik



funksiyaga ega bolsa, oquv vositasi sifatida qollanilishi mumkin. Talim vositalaridan foydalanishda ularni muayyan maqsad, mo'ljallangan guruh, maxsus

soha va metodlarga mos holda tanlash muhim o'rin tutadi. Darslarda ko'rgazmali va tarqatmali materiallardan foydalanishdan asosiy maqsad ta'lim oluvchilarning mavzuni o'rganishlarida ularning diqqatini to'plash, darsga bo'lgan qiziqishlarini oshirish, o'zlariga bo'lgan ishonchni uyg'otish hamda ko'rgazmalilik va tarqatmalilik asosida ularning bilim, ko'nikma va malakalarini oshirishdan iborat. Shu o'rinda, muhtaram Prezidentimizning «Shuni unutmasligimiz kerakki, kelajagimiz poydevori bilim dargohlarida yaratiladi, boshqacha aytganda, xalqimizning ertangi kuni qanday bo'lishi farzandlarimizning bugun qanday ta'lim va tarbiya olishiga bog'liq», degan fikrlari so'zimizning isboti bo'ladi.

Urug'lar yordamida turli xil narsalar yasash. Bu metod orqali o'quvchilarni tabiatni asrab-avaylash, har qanday narsadan unumli foydalanib biron narsa yashash va o'quvchilarni darsga bo'lgan e'tiborini kuchaytirishdan iboratdir. Bu metod orqali o'quvchilarni ijodkorligini rivojlantirish yo'q narsadan bor qilishdir. Bu metodning maqsadi ajdodlarimizdan qolgan tarixiy an'analarimizni o'quvchilarga o'rgatish va bu urf-odatlarini rivojlantirish usullari hisoblanadi.

Milliylik metodi. O'quvchilar milliy o'z-o'zini anglashi uchun o'z mamlakati, ajdodlari tarixini o'rganishi kerak. Chunki tarixni o'rganish hozir va kelajakni anglash, strategik tafakkur yuritish, yuz berayotgan voqealarga xolisona baho berish ko'nikmalarini shakllantirish, o'zining ma'lum bir millatga daxldor ekanligini anglashga yordam beradi. Har bir o'quvchi yoshlikdan o'z millati, xalqining an'analari, til boyligi, og'zaki hamda yozma adabiyoti, san'ati va musiqasi, xullas chuqur ma'naviy merosini o'rganib, bilib, o'zida mujassamlashtirib boradi. Aks holda u ma'lum bir xalqqa mansub ekanligini ko'rsata olmaydi.



Foydalanilgan adabiyotlar

1.Фарберман.Б.Л, Р.Г.Мусина.Концепция конвергенции и интеграции подходов к обучению, ориентированных на ожидаемый результат учению и на процесс развития мышления. // Сб.международн. науч. трудов.- Гулистан: 2003.2.Хайдарова О. Бўлажак ўқитувчил

2. www.openscience.uz / issn 2181-0842 440

3. Semushina L.G., Yaroshenko N.G. Soderjanie i texnologii obucheniya v srednix

spetsialnix uchebnix zavedeniyax. – Moskva: Masterstvo, 2001.

4. Mirsaidov K.J. Ixtisoslik fanlarini oʻqitish va ishlab chiqarish taʼlimi. – Toshkent:

Oqituvchi, 1996

5. www.pedagog.uz

7. www.ziynet.uz

8. www.edu.uz

9. tdpu-INTRANET. Ped